



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамишнур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Жумаева Гулрух Журакуловна

WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT ACTIVITY OF COMMERCIAL BANKS

Jumayeva Gulrux Jurakulovna

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida tijorat banklarining investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, ularning investitsion salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kapital yetarliligi, barqaror resurs bazasi, investitsiya portfelining diversifikatsiyalanganligi hamda risk-menejment tizimining samaradorligi banklarning investitsion faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, investitsion faoliyat samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi. Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsion faollik, investitsiya portfeli, bank investitsiyalari, risk-menejment, kapital yetarliligi, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya, investitsion siyosat, bank tizimi.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы повышения инвестиционной активности коммерческих банков. В ходе исследования проанализированы факторы, влияющие на инвестиционную деятельность коммерческих банков, а также определены основные направления повышения их инвестиционного потенциала. В работе использованы методы сравнительного анализа, статистического анализа и обобщения. Результаты исследования показали, что достаточность капитала, устойчивость ресурсной базы, диверсификация инвестиционного портфеля и эффективность системы управления рисками оказывают существенное влияние на инвестиционную активность банков. Кроме того, обоснована важная роль цифровых технологий и расширения сотрудничества с международными финансовыми институтами в повышении эффективности инвестиционной деятельности. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по развитию инвестиционной деятельности коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиционная активность, инвестиционный портфель, банковские инвестиции, риск-менеджмент, достаточность капитала, финансовая устойчивость, цифровая трансформация, инвестиционная политика, банковская система.

Abstract: This article examines the issues of increasing the investment activity of commercial banks. The study analyzes the factors affecting the investment activities of commercial banks and identifies the main directions for enhancing their investment potential. Comparative analysis, statistical analysis, and generalization methods were employed in the research. The findings indicate that capital adequacy, a stable resource base, diversification of investment portfolios, and the effectiveness of risk management systems significantly influence the investment activity of banks. Furthermore, the study highlights the importance of implementing digital technologies and expanding cooperation with international financial institutions to improve investment performance. Based on the research results, practical recommendations were developed to enhance the investment activities of commercial banks.

Keywords: commercial banks, investment activity, investment portfolio, bank investments, risk management, capital adequacy, financial stability, digital transformation, investment policy, banking system.

**KIRISH**

Bugungi kunda tijorat banklari iqtisodiyotning investitsion rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi. Ular jamiyatdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini safarbar etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni yo'naltirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, moliyaviy bozorlarning raqamlashtirilishi va bank sektorida raqobatning kuchayishi sharoitida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion faoliyati nafaqat kreditlash operatsiyalari bilan cheklanib qolmay, balki investitsiya portfellarini shakllantirish, qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish, investitsiya bankchiligi xizmatlarini rivojlantirish hamda innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etishni ham qamrab oladi. So'nggi yillarda xalqaro bank amaliyotida daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, noan'anaviy moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va investitsion operatsiyalar ko'lamini oshirish banklar faoliyati samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda tijorat banklarining investitsion faolligi va uni oshirish mexanizmlari keng o'rganilgan. Xususan, O. Jo'rayev tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokni kengaytirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini oshirish va investitsiya strategiyasini takomillashtirish muhimligini ta'kidlaydi. N. Olimova banklarning investitsiya bozoridagi rolini kuchaytirish va investitsion siyosat samaradorligini oshirish orqali iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantirish mumkinligini asoslaydi. D. Abiyev esa investitsion siyosatning sifatli tashkil etilishi, aktivlar rentabelligi va likvidlikni samarali boshqarish banklarning investitsion faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.

Shuningdek, so'nggi tadqiqotlarda investitsion portfelni diversifikatsiyalash, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuv tijorat banklari investitsion faolligini oshirishning asosiy omillari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash, ayniqsa transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirayotgan bank tizimlarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning amaliy mexanizmlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, banklarni transformatsiya qilish, xususiy kapital ulushini oshirish va moliyaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirish sharoitida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish bo'yicha

ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yanada ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda investitsion faollikni oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun banklarning investitsion faoliyati bo'yicha nazariy yondashuvlar o'rganiladi, amaliy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi va investitsion faollikni oshirishning istiqbolli yo'nalishlari asoslab beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va investitsion faoliyatni rivojlantirish yo'llarini asoslash maqsadida miqdoriy va sifat tahlili usullarini o'zida mujassamlashtirgan kompleks tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini bank investitsiyalari, moliyaviy vositachilik nazariyasi hamda bank faoliyati samaradorligini baholashga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, tijorat banklarining investitsion faoliyati bilan bog'liq nazariy qarashlar va ilmiy tadqiqotlar tizimli tahlil qilindi. Xususan, banklarning investitsion faolligi, investitsion portfelni boshqarish, bank resurs bazasi va investitsion imkoniyatlar o'rtasidagi bog'liqlik masalalari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Tadqiqotning nazariy bazasini bank menejmenti va moliyaviy vositachilikka oid klassik yondashuvlar, jumladan, F. Mishkinning banklar va moliyaviy bozorlar faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlari hamda P. Rose tomonidan ishlab chiqilgan bank menejmenti tamoyillari tashkil etdi⁷⁰.

Tadqiqotning asosiy usuli sifatida komparativ (qiyosiy) tahlil metodi tanlandi. Mazkur metod tijorat banklarining investitsion faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash, ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash va investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv iqtisodiy tadqiqotlarda keng qo'llanilib, murakkab moliyaviy jarayonlarni izchil tahlil qilishda samarali usul sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot doirasida tijorat banklarining investitsion faolligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

- investitsiya portfelni hajmi;
- qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi;
- uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmi;
- bank aktivlari tarkibida investitsiyalarning salmog'i;
- aktivlar rentabelligi (ROA);

⁷⁰ Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – 12th ed. – Pearson Education, 2019; Rose P.S., Hudgins <https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

S.C. *Bank Management and Financial Services*. – 10th ed. – McGraw-Hill Education, 2013.



- kapital rentabelligi (ROE);
- likvidlik ko'rsatkichlari.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida banklarning investitsion faoliyati holati tahlil qilinib, investitsion faollik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi.

Shuningdek, tadqiqotda statistik tahlil va umumlashtirish usullaridan ham foydalanildi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida dinamik qatorlar tahlili, nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash hamda guruhlash usullari qo'llanildi. Ushbu yondashuv banklarning investitsion faoliyatidagi o'zgarishlarni vaqt kesimida baholash va mavjud tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklarining yillik hisobotlari, bank sektori bo'yicha rasmiy statistik

ma'lumotlar hamda investitsion faoliyatga oid ilmiy maqolalar va monografiyalar tashkil etadi. Olingan natijalar induksiya va deduksiya usullari yordamida umumlashtirilib, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda tijorat banklarining moliyaviy salohiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-dekabr holatida bank tizimi aktivlari 751,7 trln so'mni, kredit portfeli 525,9 trln so'mni, depozitlar hajmi esa 297,4 trln so'mni tashkil etgan. Bank tizimi kapitali 112,9 trln so'mga yetgan.

Tadqiqot davomida banklarning investitsion faolligiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi tahlil qilindi.

1-Jadval

O'zbekiston tijorat banklari tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	01.01.2024	01.12.2024	O'zgarish (%)
Aktivlar (trln so'm)	652,2	751,7	15,3
Kreditlar (trln so'm)	471,4	525,9	11,6
Kapital (trln so'm)	97,1	113,0	16,4
Depozitlar (trln so'm)	241,7	297,4	23,0

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bank tizimida depozitlar hajmi eng yuqori sur'atda o'sgan. Bu esa tijorat banklarining resurs bazasi mustahkamlanib borayotganini anglatadi. Resurs bazasining kengayishi investitsion operatsiyalar hajmini oshirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Banklarning investitsion imkoniyatlari ko'p jihatdan ularning kapital darajasiga bog'liq. 2024-yil

davomida bank tizimi kapitalining 16 foizdan ortiq o'sishi investitsion loyihalarni moliyalashtirish salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, aktivlar va kredit portfelining barqaror o'sishi iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmi ortayotganini ko'rsatadi.

2-Jadval

2024-yilda bank tizimi ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari

Ko'rsatkich	O'sish sur'ati (%)
Depozitlar	23,0
Kapital	16,4
Aktivlar	15,3
Kredit portfeli	11,6

Tahlil natijalariga ko'ra, depozitlar hajmining aktivlar va kreditlarga nisbatan tezroq o'sishi banklar uchun qo'shimcha investitsion resurslar shakllanayotganini anglatadi. Biroq bank tizimida davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar aktivlarning 66 foizini va kredit portfelining 69 foizini nazorat qilmoqda. Bu esa

investitsion faoliyatda bozor mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari investitsion faolligini oshirish uchun depozit bazasini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni rivojlantirish, investitsion portfelni diversifikatsiyalash hamda risk-menejment tizimini



takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bank kapitalining o'sishi va depozitlar hajmining kengayishi investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalari tijorat banklarining investitsion faolligi, avvalo, ularning moliyaviy barqarorligi, resurs bazasi sifati va investitsion risklarni boshqarish darajasi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tahlillar kapital yetarliligi va barqaror resurs bazasiga ega banklarning investitsion operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlari yuqoriroq ekanligini tasdiqladi. Ushbu holat xalqaro amaliyotda ham kuzatiladi. Xususan, Rose va Hudgins banklarning investitsion faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan ularning kapital bazasi hamda aktivlarni boshqarish sifati bilan belgilanishini ta'kidlaydi⁷¹.

Tadqiqot davomida investitsiya portfelini diversifikatsiyalash investitsion faollikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Bu natija Markowitz tomonidan ishlab chiqilgan portfel nazariyasining asosiy tamoyillari bilan hamohang bo'lib, investitsiyalarni turli moliyaviy instrumentlar o'rtasida taqsimlash risklarni kamaytirish va kutilayotgan daromadlilikni oshirish imkonini beradi⁷². Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari investitsiya portfelida davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar va boshqa moliyaviy aktivlar ulushini maqbul nisbatda shakllantirishlari maqsadga muvofiqdir.

Natijalar shuningdek, raqamli texnologiyalarning investitsion faoliyat samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. So'nggi yillarda bank sektorida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashishi investitsion qarorlarni qabul qilish tezligini oshirib, investitsiya loyihalarini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa operatsion xarajatlarning kamayishiga va investitsion faoliyatning samaraliroq tashkil etilishiga xizmat qilmoqda. Mazkur xulosalar xalqaro moliya institutlari va bank menejmentiga oid zamonaviy tadqiqotlarda keltirilgan natijalar bilan mos keladi.

Tahlillar davomida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish ham investitsion faollikni oshirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi. Xalqaro amaliyotda uzoq muddatli investitsion resurslarni jalb qilish banklarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish hajmini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Shu sababli tijorat banklari tomonidan xalqaro moliya bozorlari va xorijiy investorlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq tadqiqot natijalari ayrim cheklovlarni ham ko'rsatdi. Jumladan, investitsion faoliyatning kengayishi ayrim hollarda likvidlik riskining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli investitsion portfelni shakllantirishda daromadlilik va risk o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi banklarning investitsion

instrumentlarni tanlash imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklab qo'yimoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari va ularning ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlili tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish uchun investitsiya portfelini diversifikatsiyalash, risk-menejment tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur yo'nalishlar banklarning investitsion salohiyatini oshirish bilan birga, mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ko'payishiga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilindi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari tijorat banklarining investitsion faolligi ularning moliyaviy barqarorligi, kapital yetarliligi, resurs bazasining sifati, investitsion risklarni boshqarish darajasi hamda investitsiya portfelining tarkibi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, kapital yetarliligi va barqaror resurs bazasi investitsion faoliyatni kengaytirishda eng muhim omillar hisoblanadi. Banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega bo'lishi investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi va investitsion operatsiyalar hajmining ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsiya portfelining diversifikatsiyalanganligi investitsion risklarni kamaytirib, investitsiyalardan olinadigan daromadlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarni joriy etish investitsion faoliyat samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Zamonaviy raqamli yechimlar investitsion qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, monitoring tizimini takomillashtiradi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish banklarning investitsion salohiyatini oshirish va qo'shimcha investitsion resurslarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- investitsiya portfelini diversifikatsiyalash darajasini oshirish;
- korporativ va davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar hajmini kengaytirish;
- investitsion risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalardan keng foydalanish;
- xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirishga qaratilgan moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish.

⁷¹ Rose P.S., Hudgins S.C. *Bank Management and Financial Services*. 10th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2013.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

⁷² Harry Markowitz *Portfolio Selection*. The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1, 1952, pp. 77–91.



Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish nafaqat banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilashga, balki iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar oqimini ko'paytirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli investitsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash va mamlakat iqtisodiy o'sishini rag'batlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna Qarshi davlat texnika universiteti iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor / Жумаева Гулрух Журакуловна – Каршинский государственный технический университет, Кандидат экономических наук, профессор / Jumayeva Gulrux Jurakulovna – Karshi State Technical University, Candidate of Economic Sciences, Professor

E-mail: g.jumayeva@kstu.uz

ORCID: 0009-0001-0614-406X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvaliyev, S. A. (2025). Mechanisms for forming and implementing investment policy of commercial banks. *Innovation Science and Technology*. Retrieved from <https://ist-journal.uz/index.php/IST/article/view/799>
2. Avezov, I. (2025). Economic significance of commercial banks' activities in the securities market. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(11). Retrieved from <https://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/6663>
3. Berger, A. N., & Humphrey, D. B. (1997). Efficiency of financial institutions: International survey and directions for future research. *European Journal of Operational Research*, 98(2), 175–212. [https://doi.org/10.1016/S0377-2217\(96\)00342-6](https://doi.org/10.1016/S0377-2217(96)00342-6)
4. Dagarov, B. M. (2025). Analysis of the investment activity of commercial banks. *Journal of International Finance and Accounting*. Retrieved from <https://interfinance.tsue.uz/?p=5009>
5. Demirgüç-Kunt, A., & Huizinga, H. (1999). Determinants of commercial bank interest margins and profitability: Some international evidence. *World Bank Economic Review*, 13(2), 379–408. <https://doi.org/10.1093/wber/13.2.379>
6. Diamond, D. W. (1984). Financial intermediation and delegated monitoring. *Review of Economic Studies*, 51(3), 393–414. <https://doi.org/10.2307/2297430>
7. Gitman, L. J., & Joehnk, M. D. (1997). *Fundamentals of investing*. Moscow: Delo.
8. Gozibekov, D. G. (2003). *Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari*. Tashkent: Moliya.
9. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305–360. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
10. Jumaeva, G. J. (2025). Theoretical and scientific basis for increasing the liquidity of commercial banks in investment activities. *The Innovation Economy*, 1(5). Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/980>
11. Kochkarov, F. A. (2021). The analysis of investment activities of commercial banks. *EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies*, 8(10). Retrieved from <https://eprajournals.com/IJHS/article/6036>
12. Lavrushin, O. I. (2022). *Bankovskoe delo*. Moscow: KNORUS.
13. Levine, R. (1997). Financial development and economic growth: Views and agenda. *Journal of Economic Literature*, 35(2), 688–726. Retrieved from <https://www.jstor.org/stable/2729790>
14. Madaminov, I. O. (2023). Banks in Uzbekistan: Issues of increasing investment activity through commercial banks. *Scholar's Digest Journal of Multidisciplinary Studies*, 2(1). Retrieved from <https://scholarsdigest.org/index.php/sdjms/article/view/215>
15. Markowitz, H. (1952). Portfolio selection. *The Journal of Finance*, 7(1), 77–91. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1952.tb01525.x>
16. Mishkin, F. S. (2019). *The economics of money, banking and financial markets* (12th ed.). Pearson Education.
17. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2013). *Bank management and financial services* (10th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
18. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2018). *Economics*. Moscow: Williams.
19. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2018). *Financial institutions management: A risk management approach* (9th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
20. Sharpe, W. F. (1964). Capital asset prices: A theory of market equilibrium under conditions of risk. *The Journal of Finance*, 19(3), 425–442. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1964.tb02865.x>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz